



O'QUVCHILAR XULQIDAGI YOSH BILAN BOG'LIQ O'ZGARISHLARNI KORREKSIYALASHNING PEDAGOGIK TIZIMI

Choriyeva F.A.

Qarshi davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti

Tayanch so'zlar: bola, o'quvchi, xulq-atvor, o'zgarish, salbiy o'zgarish, ijtimoiy, kichik maktab yoshi, tizim

Ключевые слова: ребенок, ученик, поведение, изменение, негативное изменение, социальное, младший школьный возраст, система.

Key words: child, student, behavior, change, negative change, social, junior school age, system.

Bizga ma'lumki, bola shaxsi dastlab oilaviy muhit ta'sirida shakllanadi. Natijada u oilada ijtimoiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan voqea-hodisalarni o'zlashtirib boradi, kattalar va tengdoshlari bilan mustaqil munosabatga kirishadi va shu tariqa bolaning ijtimoiylashuvi yuz beradi.

Kichik maktab yoshdagi bolalar xulq-atvoridagi salbiy o'zgarishlarni korreksiyalash tizimi va uning funksiyasi haqida fikr yuritishdan oldin tizim tushunchasiga to'xtalib o'tishni joiz deb bildik. Negaki, tizim tushunchasining mazmunini ochib bermasdan bolalar xulq-atvoridagi salbiy o'zgarishlarni korreksiyalash tizimi haqida to'liq tasavvurga ega bo'la olmaymiz.

Darhaqiqat, biz kundalik hayotimizda tizim tushunchasini juda ko'p qo'llaymiz. Ushbu tushuncha har bir sohada qo'llaniladi. Xoh u iqtisodiy, xoh ijtimoiy, siyosiy soha bo'ladimi, har biri tizimlashtiriladi va ushbu tizim ular faoliyatining samaradorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ta'lim va pedagogik sohada ham tizim tushunchasi tez-tez ishlatiladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida tizim tushunchasining mazmuni quyidagicha ochib berilgan: "O'zaro bog'liq va uzviy tartibda bo'lgan narsa, hodisalar birligi, majmui; o'zaro bog'liq qismlardan tashkil topgan tuzilma, ijtimoiy, siyosiy va boshqa jihatdan tuzilish shakli; biror-bir ish faoliyatini tashkil etish,



amalga oshirishning shakl va tartib-qoidalari majmui [1;84-b]. Demak, tizim - bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan va o‘zaro ketma-ketlik va yaxlitlikni keltirib chiqaradigan elementlarlarning yig‘indisidir.

O‘z navbatida, element tizimning ma’lum bir qismi bo‘lib, u o‘z xususiyatiga ko‘ra mustaqil obyekt sanaladi.

Har qanday tizim quyidagi belgilarga ega bo‘ladi. Bular :

tizimning butunligi;

tizimning o‘zaro bog‘liqligi;

tizim elementlari o‘rtasida munosabatlarning o‘rnatilganligi;

ichki va tashqi tizimlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va boshqalar [4;30-b].

Ushbu yondashuvlarga asoslanib, o‘quvchilar xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlarni korreksiyalash tizimini yaratib olish mumkin. Biz bu jarayonda nimalar o‘rtasidagi bog‘liqlik va yaxlitlikni tizim desak bo‘ladi. O‘z-o‘zidan shu kunga qadar bunday tizim mavjud bo‘lmaganmi?- degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu savolga biz “Albatta bo‘lgan, biroq bu tizim aynan bolalar xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlarni korreksiyalashga xizmat qilmagan”,– deb ayta olamiz.

Xo‘sh bu tizimga nimalarni kiritamiz va ular qanday ishlashi kerak, ular o‘rtasidagi bog‘liqlik va munosabat qay tarzda amalga oshirilishi lozim. E’tirof etish joizki, biz tanlagan muammoning dolzarbligi ham ana shundadir.

Ushbu tizimga biz oila – maktab – mahalla – tibbiyot muassalari – reproduktiv salomatlik markazlarini kiritish lozim deb hisobladik. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, tizim markazida bola turibdi, demak u tizimning yadrosini tashkil etadi. Uning atrofidagilar esa tizim elementlaridir. Qachonki bu elementlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq va yaxlitlik ta’minlansa hamda uzviylik amalga oshirilsa, tizim muvaffaqiyatli ishlay oladi. Bu tizimdagi har bir elementning o‘z funksiyasi mavjud bo‘lib, ular amalga oshiradigan ish ko‘lamiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Quyidagi biz tizim elementlarining funksiyasiga to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Oila – tizimning asosiy elementidir. Uning vazifasi davlat va jamiyat uchun ma’nan va jismonan sog‘lom, yetuk avlodni tarbiyalab berishdan iborat. Buning uchun oilada bolalarga reproduktiv, tarbiyaviy, psixoterapevtik xizmatlar ko‘rsatiladi. Oila bola uchun shaxsiy fazilatlar va ijtimoiylashuvni amalga oshirishning dastlabki obyektidir. Bolaning ilk ijtimoiylashuv davri oilada yuzaga keladi. Bola oila orqali nafaqat jamiyatda yashashni, balki kishilar bilan o‘zaro munosabatga kirishishni, axborot almashishni o‘rganib boradi.

Oilaning yana bir muhim vazifasi u ajdodlardan qolgan qadriyatlarni keyingi avlodlarga yetkazib beruvchi halqa hisoblanadi. Bola oilada milliy an’analar,

urf-odatlar, bir soʻz bilan aytganda, qadriyatlarni oʻzlashtira borib, ularga amal qilishni oʻrganadi. U kichikligidayoq odob-axloq, mehnat qadriyatlarini oʻrganadi. Mehnat qilish, oʻzidan kattalarni hurmat qilish, toza va ozodalik, ilm-maʼrifatli boʻlishga intilish, ona-Vatanni sevish kabi xalqimizning yuksak tuygʻularini oʻzlashtiradi [2;112].

Dastlab oilaviy tarbiya natijasida bolaning tafakkuri va nutqi rivojlanadi. Demak, oila bolaning nafaqat ruhiy-hissiy rivojlanishini taʼminlab qolmay, balki uning xulq-atvori va axloqiy fazilatlarini ham oʻstiradi. Shu sababli oilaviy tarbiya oʻrnini hech bir maskan bosa olmaydi.

Tizimning yana bir muhim elementi bu – mahalladir. Demak, mahalla oʻz-oʻzini boshqarishga asoslangan va xalqimizning asl qadriyatlarini oʻzida mujassam etgan boshqarishning tarixiy va zamonaviy shaklidir.

Kichik maktab yoshdagi bolalar xulqidagi salbiy oʻzgarishlarni samarali korrektsiyalash yoʻlida maktab faoliyatiga bolalarni toʻlaqonli jalb etish, ularni tizimli ishtirokini taʼminlash katta ahamiyat kasb etadi. Bola mazkur jarayonda oʻyin, mehnat, oʻqish kabi faoliyat turlariga kirishadi, oʻz tarbiyachilari, oʻrtoqlari, atrofidagilar bilan muloqotga kirishish qobiliyati koʻzga tashlanib, doʻstlari bilan munosabat oʻrnatish borasida koʻnikma va malakalari shakllanib boradi.

Oʻquvchilar xulqidagi salbiy oʻzgarishlarni bartaraf etish ularning ijtimoiy hayotga tayyorgarlik darajasiga ham bogʻliq. Bunda avvalo bolani ijtimoiy adaptiv koʻnikma va malakalariga ega boʻlishlari ham muhim ahamiyatga egadir. Chunki maishiy turmush bola hayotining asosiy qismi boʻlib, tiriklikning negizi sanaladi. Maʼlumki, xulqida salbiy oʻzgarishlar kuzatilgan bolalar boshqa tengdoshlaridan farqli ravishda sharoitga moslashuvi qiyin kechadi. Shu bois faol ishtirokchi sifatida eʼtirof etilmaydi. Bu borada bolalarni, avvalo, oila aʼzolari va qoʻni-qoʻshnilar bilan hamjihatlikka oʻrgatish maqsadga muvofiq.

Pedagogik diagnostika natijalari oʻquvchilarda kuzatiladigan salbiy oʻzgarishlarni bartaraf etishning quyidagi usullari samarali ekanligi tasdiqlaydi:

Birinchidan, bola xulqidagi salbiy holat paydo boʻlishining sabablarini aniqlash.

Ikkinchidan, bolaning oʻziga murojaat qilgan holda u tomonidan salbiy xatti-harakatlar sodir etilayotganligi toʻgʻri yoki notoʻgʻri (yaxshi yoki yomon) ekanligi haqidagi fikrini bilish

Uchinchidan, salbiy xulq-atvoriga moyil bolalarga pand-nasihat qilish emas, balki ularni muloqotga kirishishga undash lozim [3;153].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki bugungi kunda bolalar xulq-atvoridagi salbiy oʻzgarishlarni oʻrganishda xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish, rivojlangan



davlatlarning tajribasini o'rganish, ilg'or tadqiqot markazlarining xulosalari bilan tanishish bolalar xulqini korreksiyalashning milliy metodologiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali mamlakatimizda bolalar tarbiyasini zamonaviylashtirish, yangicha yondashuvlarni olib kirish va tajriba almashish yo'llari bilan yuqori samaraga erishish mumkin. Shuningdek, bolalar tarbiyasiga, ularning ruhiy sog'lomligiga erishishda bu sohaga katta investitsiya kiritish ancha samarador ekanligini bu borada yaxshi natijaga erishgan davlatlar amaliyotidan ham bilsa bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. T.2. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B.572.
2. Мунавваров А.К. “Оила педагогикаси”. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1994. – 112 б.
3. Зарипов К.З. “Педагогическая диагностика в системе непрерывного повышения квалификации учителей”.: пед. фанл. докт. дисс. – Тошкент. Низомий номи ТДПУ, 1990. – 153 б.
4. Жўраев Р.Х. Сафарова Р.Ф. Ибрагимов Х.И., Мусаев У.Қ. “Педагогика фани концепцияси”. // “Халқ таълими”. – 2004, № 5. – Б. 8-31.
5. Freud Z. Gesammelte Werke. – London: Imago, 1952. –Vol. – P. 1-17.

РЕЗЮМЕ

Yoshlarning xulq-atvori ilk bolalik davridan boshlab shakllana boshlaydi. Bolalar xulq-atvorining shakllanish jarayoni birmuncha murakkab jarayon bo'lib, u o'ta mas'uliyatli va e'tiborli bo'lishni talab etadi. Ushbu maqolada o'quvchilar xulq-atvoridagi salbiy o'zgarishlarning kelib chiqish sabablari va korreksiyalash haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

Поведение молодых людей начинает формироваться с раннего детства. Процесс формирования поведения детей — достаточно сложный процесс, требующий предельной ответственности и внимания. В данной статье представлена информация о причинах и коррекции негативных изменений в поведении учащихся.

SUMMARY

The behavior of young people begins to form from early childhood. The process of the formation of children's behavior is a somewhat complicated process that requires extreme responsibility and attention. This article provides information on the causes and correction of negative changes in student behavior.